Qolandarova Dilafruz Karimovna (Urganch davlat universiteti tayanch doktoranti, Urganch, Xorazm)

MUHAMMADNIYOZ NISHOTIY HAYOTIGA OID MANBALARNI O‘RGANISHDAGI IZCHILLIK

Annotatsiya. *Ushbu maqolada XVIII asr Xorazm adabiy muhitining yirik namoyandalaridan biri bo‘lgan Muhammadniyoz Nishotiy hayotiga oid manbalar tizimli tarzda tahlil qilinadi. Shoirning tarjimai holiga oid aniq tarixiy hujjatlar saqlanmaganligi sababli, maqolada mavjud manbalar birlamchi va ikkilamchi manbalarga ajratilgan holda o‘rganiladi. Birlamchi manba sifatida shoirning o‘z asarlari, xususan, «Husn va Dil» dostoni tahlil qilinib, undagi avtobiografik misralar orqali Nishotiyning kelib chiqishi, yashagan muhiti hamda Buxoroga hijrati kabi hayotiy voqealar aniqlanadi.*

Kalit so‘zlar: *Muhammadniyoz Nishotiy, XVIII asr Xorazm adabiy muhiti, «Husn va Dil» dostoni, birlamchi va ikkilamchi manbalar, manbashunoslik.*

ПОСЛЕДОВАТЕЛЬНОСТЬ В ИЗУЧЕНИИ ИСТОЧНИКОВ, СВЯЗАННЫХ С ЖИЗНЬЮ МУХАММАДНИЯЗА НИШОТИЯ

Аннотация. *В статье проводится систематический анализ источников, относящихся к жизни Мухаммадниёза Ништоти–одного из крупных представителей хорезмской литературной среды XVIII века. Поскольку точные исторические документы о биографии поэта не сохранились, имеющиеся источники рассматриваются с разделением на первичные и вторичные. В качестве первичного источника анализируются собственные произведения поэта, в первую очередь дастан «Хусн ва Дил», автобиографические строки которого позволяют установить происхождение Ништоти, среду его жизни, а также такие события, как вынужденное переселение в Бухару.*

Ключевые слова: *Мухаммадниёз Ништоти, хорезмская литературная среда XVIII века, дастан «Хусн ва Дил», первичные и вторичные источники, источниковедение.*

CONSISTENCY IN THE STUDY OF SOURCES RELATED TO THE LIFE OF MUHAMMADNIYOZ NISHOTIY

Annotation. *This article provides a systematic analysis of the sources relating to the life of Muhammadniyoz Nishotiy, one of the major representatives of the eighteenth-century Khorezm literary milieu. Since no precise historical documents concerning the poet's biography have survived, the available sources are examined through a division into primary and secondary. As a primary source, the poet's own works are analysed – above all the doston "Husn va Dil", whose autobiographical lines allow his origin, the environment in which he lived, and such events as his forced migration to Bukhara to be established. significance for the contemporary educational process.*

Keywords: *Muhammadniyoz Nishotiy, eighteenth-century Khorezm literary milieu, the doston "Husn va Dil", primary and secondary sources, source studies.*

Kirish. XVIII asr Xorazm adabiy muhitining yirik namoyandalaridan biri bo‘lgan Muhammadniyoz Nishotiy hayoti va ijodiy faoliyati haqida ma’lumotlar nisbatan kam saqlanib qolgan. Shoirning tarjimayi holiga oid aniq va mukammal tarixiy hujjatlar mavjud emasligi sababli, uning hayot yo‘lini tiklashda, avvalo, o‘z asarlari, xususan, «Husn va Dil» dostoni, shuningdek, qo‘lyozma manbalari, adabiyotshunos olimlarning tadqiqotlari hamda keyingi davrlarda yaratilgan ilmiy ishlarga tayanishga to‘g‘ri keladi. Shu jihatdan qaralganda, Muhammadniyoz Nishotiy hayotiga oid manbalarni birlamchi va ikkilamchi manbalarga ajratish mumkin.

Materiallar va metodlar. Muhammadniyoz Nishotiy tarjimai holini o‘rganishda eng muhim manba uning o‘z asarlari hisoblanadi. Ayniqsa, «Husn va Dil» dostoni shoir hayoti, yashagan muhiti va dunyoqarashi haqida qimmatli ma’lumotlarni o‘zida mujassam etgan. «Husn va Dil»ning kirish qismida shoir o‘zining Xorazm diyorida tug‘ilib o‘sganligini alohida ta’kidlaydi:

Bor edi Xorazm diyori yerim,
Andin edi yaxshi-yomon gavharim. [1;2-b.]

Mazkur misralar Muhammadniyoz Nishotiyning asli xorazmlik ekanligini ko‘rsatuvchi eng muhim avtobiografik ma’lumotlardan biri hisoblanadi. Shu bilan birga, shoir vatani haqida yuksak mehr bilan so‘z yuritib, uni «jannatmisol diyor» sifatida tasvirlaydi. Bu esa uning Vatanga muhabbat va sadoqat tuyg‘ularini ham namoyon etadi.

Dostonda shoirning hayotida yuz bergan ayrim ijtimoiy-siyosiy voqealar ham o‘z aksini topgan. Jumladan, Xorazmdagi notinch vaziyat tufayli o‘z yurtini tark etishga majbur bo‘lgani va Buxoroga hijrat qilgani haqida quyidagi satrlarni keltiradi:

Xullas, o‘lub mulki vatandin judo,

Soldum o'zum g'urbati shiddat aro.
Toki Buxoro sari qo'ydum qadam,
Oh, bu xori aro bo'ldum adam. [1]

Ushbu misralar XVIII asrda Xorazmda hukm surgan siyosiy beqarorlikning shoir taqdiriga ham salbiy ta'sir ko'rsatganligini ko'rsatadi. Shu bois «Husn va Dil» nafaqat badiiy asar, balki muallif hayotiga oid muhim tarixiy manba sifatida ham qimmatlidir.

Natijalar. «Husn va Dil» dostoni shoirning ilmiy saviyasi va adabiy qarashlari haqida ham ma'lumot beradi. Jumladan, dostonning to'qqizinchi bobida Nizomiy Ganjaviy, Amir Xusrav Dehlaviy, Alisher Navoiy va Abdurahmon Jomiy kabi buyuk mutafakkirlarga bo'lgan ehtirom ifodalanadi. Bu esa Muhammadniyoz Nishotiyning Sharq mumtoz adabiyotini chuqur o'rgangan va o'zini shu an'ananing davomchisi deb bilgan ijodkor ekanligidan dalolat beradi [1;3-b.].

Muhammadniyoz Nishotiy hayoti va ijodi ilmiy jihatdan XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab o'rganila boshlandi. Bu borada Vohid Abdullayevning xizmatlari alohida ahamiyatga ega. Olim «Xokisor va Nishotiy» hamda «XVII–XVIII asrlarda Xorazmda o'zbek adabiyoti» nomli tadqiqotlarida shoirning yashagan davri, ijodiy merosi va adabiy muhitini tahlil qiladi [2;7–18-b.].

So'nggi yillarda O.I.Abdurahmonovaning «Nishotiy munozaralarining matniy tahlili» mavzusidagi PhD dissertatsiyasi muallifning merosini manbashunoslik va matnshunoslik nuqtayi nazaridan tadqiq etish yo'nalishida muhim qadam bo'ldi. Tadqiqotda shoirning munozara janridagi asarlari, ularning qo'lyozma nusxalari va matniy xususiyatlari atroflicha o'rganilgan [5;5–6-b]. Shunday qilib, Muhammadniyoz Nishotiy hayotiga oid ma'lumotlarning asosiy qismi uning o'z asarlari, qo'lyozma manbalari va XX–XXI asr adabiyotshunoslarining tadqiqotlari orqali tiklanmoqda. Mavjud manbalar shoirning XVIII asr Xorazm adabiy muhitining yirik vakili bo'lganligini, murakkab tarixiy sharoitda yashaganini hamda boy adabiy meros yaratganligini ko'rsatadi.

Muhokama. Xulosa, shunday qilib, XVIII asr Xorazm adabiy muhitining shakllanishi murakkab ijtimoiy-siyosiy sharoitda kechgan bo'lishiga qaramasdan, mintaqada qadimdan shakllangan ilmiy-ma'rifiy an'analar, madrasa ta'limi, mumtoz adabiyot maktabi, tasavvufiy qarashlar hamda qo'lyozma madaniyatining uzviy davomiyligi tufayli adabiy hayot izchil rivojlandi. Mazkur muhit o'zbek mumtoz adabiyotining keyingi taraqqiyoti uchun mustahkam zamin yaratib, yangi avlod ijodkorlarining shakllanishiga xizmat qildi.

XVIII asr Xorazm adabiy maktabi vakillari Sharq mumtoz adabiyoti an'analarini ijodiy davom ettirish bilan birga, o'z davrining ma'naviy ehtiyojlari va ijtimoiy muammolarini badiiy talqin qilishga intildilar. Ana shu adabiy jarayonning yirik namoyandalaridan biri bo'lgan Muhammadniyoz Nishotiy lirik she'riyat, dostonchilik va munozara janrlarida samarali ijod qilib, o'zbek adabiy tafakkuri taraqqiyotiga munosib hissa qo'shdi.

Muhammadniyoz Nishotiy hayoti va ijodiy faoliyatiga oid ma'lumotlarning asosiy qismi uning o'z asarlari, ayniqsa, «Husn va Dil» dostoni orqali tiklanishi mumkinligi aniqlandi. Mazkur asar nafaqat yuksak badiiy yodgorlik, balki shoirning tarjimayi holi, yashagan muhiti va dunyoqarashini yorituvchi muhim tarixiy-adabiy manba sifatida ham alohida ahamiyat kasb etadi.

Demak, XVIII asr Xorazm adabiy muhiti va Muhammadniyoz Nishotiy hayotiga oid manbalarni tarixiy-retrospektiv jihatdan tahlil qilish shoirning o'z davrining yirik ma'rifatparvar ijodkori sifatidagi o'rnini aniqlash, uning adabiy merosida mujassamlashgan ta'limiy-axloqiy va ma'naviy qadriyatlarning mohiyatini ochib berish hamda ularni zamonaviy pedagogik jarayon bilan uyg'un holda tadqiq etish uchun muhim nazariy-metodologik asos bo'lib xizmat qiladi. Shu jihatdan, Muhammadniyoz Nishotiy merosi XVIII asr Xorazm adabiy-madaniy muhitining yuksak ma'naviy salohiyatini o'zida mujassam etgan bebaho ma'naviy boylik sifatida baholanishi mumkin.

Shoir yashab ijod etgan davrda yurt ravnaqi, jamiyat osoyishtaligi va insonlarning o'zaro ahilligi ijtimoiy taraqqiyotning muhim omili sifatida qaralgan. Shu bois uning asarlarida insonning o'z xalqi, milliy qadriyatlari va ma'naviy merosiga sadoqat bilan munosabatda bo'lishi yuksak fazilat sifatida talqin qilinadi [6;154-b.].

Shoirning didaktik qarashlarida yurt tinchligi, hamjihatlik va ijtimoiy barqarorlik g'oyalari muhim o'rin egallaydi. Insonning o'z xalqi va jamiyatiga nisbatan mas'uliyat hissi, o'zaro mehr-oqibat va fidoyilik tamoyillari barkamol shaxsni tarbiyalashning muhim omillari sifatida talqin etiladi. Shu jihatdan Nishotiy merosidagi vatanparvarlik g'oyalari umuminsoniy qadriyatlar bilan uyg'unlashgan holda namoyon bo'ladi [8;83-b.]. Sharq mutafakkirlarining ma'naviy merosida bo'lgani kabi, Nishotiy ijodida ham Vatanga muhabbat insonparvarlik, adolat va ezgulik tushunchalari bilan uzviy bog'liqdir. Shoir insonning jamiyat oldi-

dagi burchini anglashini, el manfaatlarini shaxsiy manfaatlardan ustun qo‘yishini yuksak ma’naviy fazilat sifatida baholaydi.

Shunday qilib, Muhammadniyoz Nishotiy ijodida vatanparvarlik g‘oyalari insonning ma’naviy kamoloti, jamiyat taraqqiyoti va milliy qadriyatlarning davomiyligini ta’minlovchi muhim tarbiyaviy omillardan biri sifatida namoyon bo‘ladi. Mazkur qarashlar bugungi kunda ham yoshlarni Vatanga muhabbat, milliy g‘urur va fuqarolik mas’uliyati ruhida tarbiyalashda muhim ma’naviy manba bo‘lib xizmat qiladi.

Xulosa. Xulosa, Muhammadniyoz Nishotiy ijodini pedagogik nuqtayi nazardan tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, shoirning ma’naviy-ma’rifiy qarashlarida estetik tarbiya, insonparvarlik va vatanparvarlik g‘oyalari o‘zaro uzviy bog‘langan yaxlit tarbiyaviy tizimni tashkil etadi. Mazkur qarashlar insonning nafaqat axloqiy kamolotini, balki uning ruhiy, estetik va ijtimoiy yetukligini ta’minlashga qaratilganligi bilan alohida ahamiyat kasb etadi.

Nishotiy talqinida estetik tarbiya insonning go‘zallikni anglash, nafislikni qadrlash va ma’naviy poklikka intilish kabi fazilatlarini shakllantirishga xizmat qiladi. Insonparvarlik tarbiyasi esa mehr-oqibat, muruvvat, bag‘rikenglik va adolat tamoyillari asosida insonlar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarni takomillashtirishga yo‘naltirilgan. Shu bilan birga, shoirning vatanparvarlik haqidagi qarashlari insonning milliy qadriyatlarga hurmat bilan munosabatda bo‘lishi, jamiyat manfaatlariga daxldorlik hissini anglash va o‘z el-yurtiga sadoqat ruhida yashashi bilan bog‘liq holda talqin etiladi.

Mazkur jihatlar Muhammadniyoz Nishotiyning pedagogik qarashlari zamonaviy tarbiya konsepsiyalari bilan uyg‘unlashgan holda o‘zining ilmiy va tarbiyaviy qimmatini saqlab qolayotganligini ko‘rsatadi. Shu sababli shoir merosidan ta’lim-tarbiya amaliyotida samarali foydalanish yosh avlodning ma’naviy-axloqiy kamolotini ta’minlashning muhim omillaridan biri sifatida e’tirof etilishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). Нишотий. Ҳусн ва Дил. Тошкент, Ғафур Ғулом номидаги бадиий адабиёт нашриёти, 1967.

(2). Абдуллаев В. Хокисор ва Нишотий. Самарқанд, 1960.

(3). Расул Х. Нишотий. «Ҳусн ва Дил». Лирика. Тошкент, Ғафур Ғулом номидаги бадиий адабиёт нашриёти, 1967.

(4). Шукурова Г. Нишотий ҳаёти ва ижоди ўрганилиши. Республика илмий-амалий конференцияси материаллари. 2023.

(5). Абдураҳмонова О.И. Нишотий мунозараларининг матний таҳлили. Филол. фан. бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати, Тошкент, 2021.

(6). Имомназаров М. Миллий маънавиятимиз такомил босқичлари. Тошкент, “Шарқ”, 1996.

(7). Отамуротов С. Маънавият асослари. Тошкент, “Ўзбекистон”, 2002.

(8). Каримов И.А. Юксак маънавият – енгилмас куч. Тошкент, “Маънавият”, 2008.

Nashirova Dilnoza Burievna (Qarshi davlat Texnika universiteti dotsenti)

O‘ZBEK VA INGLIZ TILLARIDA YO‘NALMA HARAKAT FE’LLARINING VALENTLIK XUSUSIYATLARI VA LEKSIKOGRAFIK TALQINI

Annotatsiya. *Mazkur maqolada o‘zbek va ingliz tillaridagi yo‘nalma harakat fe’llarining valentlik xususiyatlari, argument strukturasi, yo‘nalish, manba, yo‘l va maqsad kabi semantik komponentlari hamda ularning izohli va ikki tilli lug‘atlarda ifodalanish xususiyatlari qiyosiy jihatdan tadqiq etiladi.*

Kalit so‘zlar: *yo‘nalma harakat fe’llari, valentlik, argument strukturasi, semantik rol, yo‘nalish, manba, maqsad, yo‘l, leksikografiya, qiyosiy tilshunoslik, tarjima ekvivalenti, o‘zbek tili, ingliz tili.*

ВАЛЕНТНОСТНЫЕ ОСОБЕННОСТИ И ЛЕКСИКОГРАФИЧЕСКАЯ ИНТЕРПРЕТАЦИЯ ГЛАГОЛОВ НАПРАВЛЕННОГО ДВИЖЕНИЯ В УЗБЕКСКОМ И АНГЛИЙСКОМ ЯЗЫКАХ

Аннотация. *В статье в сопоставительном аспекте исследуются валентностные особенности глаголов направленного движения в узбекском и английском языках, их аргументная структура, а также семантические компоненты направления, источника, пути и цели движения и способы их лексикографического представления.*

Ключевые слова: *глаголы направленного движения, валентность, аргументная структура, семантическая роль, направление, источник, цель, путь, лексикография, сопоставительное языкознание, переводной эквивалент, узбекский язык, английский язык.*